

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHDA "ILM YO'LI" VARIATIV DASTURINING AHAMIYATI

Babayeva GulchehraRustamovna.

"Maktabgacha ta'lim" kafedrası

Metodik fanlari fani

o'qituvchisi

Annotatsiya: "Ilm yo'li" variativ dasturining maqsad va vazifalari haqida yoritilgan. "Ilm yo'li" variativ dasturi orqali bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlash jarayoni aks etgan. Unda majburiy tayyorlov guruhları faoliyatlari o'zaro bog'liqligi birinchi sinf darsliklari bilan qiyosiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: "Ilm yo'li", faoliyat, mashg'ulot, rivojlanish, bola.

Mavzu Respublikamizda bugungi kunda juda katta islohotlar olib borilmoqda. Mana shu islohotlardan biri maktabgacha ta'lim sohasida bo'lib, bu sohaga alohida e'tibor qaratilganligidir. Maktabgacha yoshdagi bolaga singdirilgan bilim va qadryatlar uning kelgusidagi hayotini belgilab berishi sababli maktabgacha ta'lim uyg'un rivojlangan shaxsni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Darhaqiqat, maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining boshlang'ich halqasi bo'lib hisoblanadi. U sog'lom va har tomonlama yetuk bola shaxsi shakllanishini ta'minlashga, uni muntazam ravishda ta'lim olishga tayyorlab, uni o' qishga bo'lgan havasini uyg'otishga qaratilgan bo'lib, bu 6-7 yoshgacha bo'lgan davrda davlat va nodavlat bolalar maktabgacha ta'lim muassasalarida va oilalarda amalga oshiriladi. Bolalarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish, ularning borliq, turli o'quv predmetlariga oid ilk tasavvurlarni mehnatsevarlik, tirishqoqlik, zukkolik faollik kabi fazilatlarining qaror toptirishda maktabgacha ta'lim maskanlarining o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Mana shu maksadda maktabgacha ta'lim tizimiga katta e'tibor qaratilmoqda

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabridagi "Boshlang'ich ta'limga bolalarni majburiy bir yillik tayyorlashga bosqichma-bosqich o'tish bo'yicha chora-tadbirlar haqida"gi 999-sonli qarori bilan mos holda maktabgacha

ta'lim tizimini kelgusida takomillashtirish, sog'lom, faol, to'la rivojlangan, ijtimoiy moslashgan bola shaxsini shakllantirish, shuningdek, boshlang'ich ta'limga bolalarning sifatli tayyorgarligi va kelgusidagi muvaffaqiyatli o'quv faoliyatiga shart-sharoitlarni yaratish maqsadlarida respublikaning barcha xududlarida bosqichma-bosqich tarzda 6-7 yoshli boshlang'ich ta'limga bolalarni majburiy yillik tayyorlash guruhleri tashkil etiladi.

Ushbu qarorni ijro etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining tashabbusi bilan 6-7 yoshli bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularga ta'lim tarbiya berish va maktabga tayyorlash maqsadida "Ilm yo'li" variativ dasturi ishlab chiqildi. Dastur maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun ishlab chiqilgan "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi, O'zbekiston Respublikasida ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari, "Kadrlar tayyorlash bo'yicha Milliy dastur", maktabgacha ta'limni rivojlantirish Kontseptsiyasi asosida ishlab chiqildi.

"Ilm yo'li" variativ dasturi bolaning to'laqonli rivojlanishi, tarbiyalanishi va o'qishini, uning maktabda ta'lim olishga samarali tayyorlanishini ta'minlashga qaratilgan, bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha xalqaro tajribalarning hisobga olinib, ishlab chiqilgan hujjat bo'lib sanaladi.

"Ilm yo'li" variativ dasturda 6 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning maqsad va vazifalari zarur bo'lgan rivojlanish amaliyoti va maktabga tayyorlash uchun teng imkoniyatlarni vujudga keltirish, 6-7 yoshli bolalar uchun mo'ljallangan majburiy boshlang'ich ta'limga bir yillik tayyorlash guruhlar bolalarini to'liq kunli maktabgacha ta'lim tashkilotiga berish imkoniyatiga ega bo'lmagan yoki muayyan sabablarga ko'ra, bunga intilmaydigan ota-onalarning talab-ehtiyojlarini qondirishi, 6-7 yoshli bolalar uchun mo'ljallangan majburiy boshlang'ich ta'limga bir yillik tayyorlash guruhlar maktabgacha ta'limga qo'yiladigan Davlat talablariga muvofiq, 5 muhim sohada bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashi zarur (jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish; ijtimoiy-hissiy rivojlanish; nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari; bilish

jarayonining rivojlanishi; ijodiy rivojlanish) har tomonlama uyg'un rivojlanishini ta'minlashga mo'ljallangan, maktab ta'limiga umumiy psixologik tayyorgarlik ta'minlashni ko'zda tutadi:

Haqiqatan ham ta'lim olish jarayoni yildan yilga shunchalar rivojlanib bormoqdaki, 1-sinfga borayotgan bolalar uchun yangidan yangi talablar qo'yilmoqda. Ilgari bolalar maktabga chiqib, alifboni o'rgansalar, hozirgi bolalar bog'cha davridanoq o'qish ko'nikmalarini bilishi maqsadga muvofiq etib belgilandi.

Mazkur dastur bola rivojiga individual yondashuv, uning shaxsini hurmat qilish, uning manfaatlari ehtiyojlari va rivojlanish darajasini hisobga olish, hissiy qulaylik borasida g'amxo'rlik qilish, erkin ijodiy o'z-o'zini ko'rsatishi uchun sharoitlar yaratishga intilishni ko'zda tutadi.

Shu sababli, rejalashtirish bilan bir qatorda, bola rivojlanishini kuzatib borish pedagog faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi.

u jarayonda bolalarning zaif toifasiga alohida e'tibor talab etiladi. Jamoada bolalar bir-biri bilan o'zaro aloqa bog'lashga, jinsi, irqi, millati, madaniyati, tili, e'tiqodi, yoshi, alohida talab-ehtiyojlari, oilaning tuzilishi va uning ijtimoiy-iqtisodiy holatidan qat'i nazar, boshqa kishilar bilan do'stona munosabatlar o'rnatishga o'rganadi.

“Ilm yo‘li” variativ dasturi inklyuziv ta'limning quyidagi tamoyillariga tayanadi:

- Insonning qadr-qimmati uning qobiliyati va erishgan yutuqlari bilan belgilanmaydi;
- Har bir inson his etish va fikr yuritishga qodir;
- Har bir inson muloqot yuritishga va uning fikrlari e'tirof etilishiga haqlidir;
- Barcha kishilar bir-biriga ehtiyoj sezadi;
- Chinakam ta'lim muayyan o'zaro munosabatlar doirasidagina amalga oshirilishi mumkin;
- Barcha insonlar qo'llab-quvvatlashga va tengdoshlar bilan do'st bo'lishga ehtiyoj sezadi;
- Ta'lim olayotganlar uchun ijobiy yutuqlarga erishish qo'lidan kelmaydigan ishdan

ko'ra, uddalay oladigan ishda ko'proq namoyon bo'ladi;

- Rang-baranglik inson hayotini boyitadi;
- Bir-birimizdan farq qilishimiz va har birimiz individual [shaxs ekanimizni tan olish](#);
- Rivojlantiruvchi dasturlarning individuallashtiruvini ta'minlash, ya'ni dasturlarni har bir bolaning birgalikdagi faoliyat doirasidagi talab-ehtiyojlari hamda maktabgacha ta'lim tashkiloti va majburiy bir yillik maktabga tayyorlov guruhlarining umumiy maqsadlarini e'tiborga olgan holda tuzish;
- Ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarning o'qishini, ularning rivojlanishi va maktabgacha ta'lim tashkiloti hayotida faol ishtirokini qo'llab-quvvatlash borasida qimmatli uslubiy tajriba to'plash;
- Barcha bolalar [bir xil taqdirlanishi lozim](#);
- Yosh xususiyatlariga mos bo'lgan umumiy o'quv rejasidan foydalana olish imkoniyatini yaratadigan ta'limning differensiyallashgan strategiyalariga tayanish;
- Maktabgacha ta'lim tashkiloti va qisqa muddatli guruhlarini bolaning talab-ehtiyojlariga uzluksiz moslashuvini ta'minlash;
- bolalarni bir yillik majburiy maktabga tayyorlash bo'yicha guruhlar va maktabgacha ta'lim tashkilotining bolaning talab-ehtiyojlariga doimiy moslashtirilishini ta'minlash.

Inklyuziv ta'lim prinsipial jihatdan yangicha tizim bo'lib sanaladi. [Bu shuni anglatadiki](#), bunda pedagoglarga ta'lim jarayonini tuzib chiqishda alohida olingan bolaning, ayniqsa, notipik rivojlanishga ega bolalarning fiziologiyasi va psixikasi rivojlanishi bilan bog'liq bo'ladigan individual o'ziga xosliklarini hisobga olishlari kerak bo'ladi. "Ilm yo'li" variativ dasturida "Inklyuziv ta'lim" haqida so'z [yuritilar ekan](#), bu mamlakatimizda "Bola huquqlari to'g'risida"gi qonunning amalda ishlayotganligi va imkoniyati cheklangan bolajonlarning jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishlari uchun olib borilayotgan islohotlardan biri desak mubolag'a bo'lmaydi.

So'ngi yillarda barcha sohalarda tub islohotlar bo'layotganligi kabi ta'lim sohasida ham bir qator o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Biz bilamizki, ta'lim sohasining "Poydevor" qismi, bu Maktabgacha ta'lim sohasi hisoblanadi. Zero bunga

misol qilib O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 8-dekabr 2018-yil „Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlashga bosqichmabosqich o'tish chora-tadbirlari to'g'risida“ gi 999-sonli qarori, bu qarorga o„zgartirishlar kiritilishi natijasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 9-mart 2020-yil „Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to„g'risida“ gi 132-sonli qarori, shuningdek, 132- sonli qarorga o„zgartirishlar kiritilishi natijasida vujudga kelgan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 10-fevral 2022-yil „Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to„g'risida“ gi 66-sonli qarori ni misol qilib olsak bo'ladi. Umumiy olganda „Ilm yo'li“ variativ dasturi har tomonlama bolani maktab ta'limiga sifatli tayyorlashga xizmat qiladi. Jumladan quyida ularni ko'rib chiqamiz:

- Qurilish, konstruktorlik va matematika markazi;
- Syujetli-rolli o„yinlar va dramalashtirish markazi;
- Til va nutq markazi;
- Ilm, fan va tabiat markazi;
- San'at markazi.

Qurilish, konstruktorlik va matematika markazida bola dastlab o'z hayoti va maktab faoliyati uchun zarur bo'lgan metodik bilim va ko'nikmalar yordamida maktab ta'limiga tayyorlanadi. Bunda tarbiyachi bolaning individual xususiyatlarini inobatga olishi muhim sanaladi. Bunda bolalarning har biri bilan alohida shug'ullanish talab etiladi. Chunki har bir bola bu guruhga kelguncha unda o'qish, yozish, hisob kitob malakalari shakllantirilgan yoki mutlaqo habarsiz holatda bo'lishi mumkin. Shuning uchun puxta ishlab chiqilgan „Ilm yo'li“ variativ dasturi ko'magida tarbiyachi faoliyatlar jarayonida bolani qiziqishiga qarab ushbu markazga yo'naltiradi. Jumladan „Transport, ko'cha harakati qoidolari“ mavzusida frontal faoliyat tashkil etilgandan so'ng bolada ushbu faoliyatni qurish yasash markazida „moshina qurish“ yoki uni yasashga qiziqishiga qarab markazlarga taqsimlaydi va huddi shunday boshqa markazlarga ham bolalar qiziqishlariga qarab taqsimlanadi. Majburiy guruh

tarbiyachisi bolalarni berayotgan savolariga qarab ham faoliyatlar jarayonida taqsimlay olish ahoratiga ega bo'lishi zarur. Quyidagi savollarni ko'rib chiqamiz: Agar bola transport vositalarini qurish yoki yashashga oid „bu nimadan yasalgan,, yoki „uni qanday yasash mumkin?“ kabi savollar bilan murojaat qilsa uni Qurilish, konstruktorlik va matematika markaziga, agar bola „moshina-moshina“ oynini yoki transport yoki ko'chada harakatlanish o'ynini o'ynashni xoxlasa „Syujetli-rolli o,,yinlar va dramalashtirish markazi“ga agar bola transport vositasining turlari yoki uning nomlari va unga oid she'rlarni yoki hikoyalarni eshtishga qiziqsa, „Til va nutq markazi“ga bolalda mashinalarning qanday harakatlari yoki qanday yo'llar mavjud ekanligiga qiziqsa Ilm, fan va tabiat markaziga, agar bola uni sur'atlarda ta'svirlashni xohlasa San'at markaziga taqsimlashi va ularning faoliyatni yanada qiziqarli va mazmunli tashkil etishi muhim sanaladi. O'z navbatida „Ilm yo'li“ varitiv dasturi bolani har tomonlama maktab ta'limiga tez va sifatli tayyorlashiga asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki ushbu dasturdagi faoliyatlar bevosita 1-sinf darsliklari bilan bevosita holda bog'langan. Masalan: Nutq o'stirish faoliyatida olgan ko'nikmalar bevosita 1-sinf darsligida „Alifbe“ hamda „O'qish“ darsliklarini uzviy davomi hisoblanadi. Elementar matematik bilim va ko'nikmalar bo'limida bolalar 1-sinf uchun „Matematik“ yoki „Mantiqiy matematika“ fanlarini uzviy davom ettirish uchun asosiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotidan boshlangan „Musika mashg'ulotlari“ maktab ta'limida ham bevosita davom ettiriladi ular orqali quyidagi ko'nikmalarni davom ettiradi. Musika tinglash, musiqiy-ritmik harakatlar, qo'shiq aytish, bolalar cholg'u asboblari chalish, turli harakatli o'yinlar o'rgatiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida majburiy tayyorlov guruhlarida tashkil etiladigan mashg'ulotlar nomi va 1-sinf mashg'ulotlarida o'tiladigan fanlarning o'zaro bog'liqliklari quyida keltirib o'tilgan

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, davlatimizda sohaga oid amalga oshirilayotgan barcha islohotlar hamda yangilanishlar amalda o'z ifodasini topib, farzandlarimiz sifatli va zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiya topib,

savod chiqarishlari har bir ota-onani va o'z o'rnida maktab o'qituvchilarini ham quvontiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ilm yo'li“ variativ o'quv dasturi – Toshkent.: 2019
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Boshlang'ich ta'limga bolalarni majburiy bir yillik tayyorlashga bosqichma-bosqich o'tish bo'yicha chora-tadbirlar haqida”gi 999-sonli qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining „Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida“ gi 132-sonli qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining „Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi 66-sonli qarori
- 4.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son “O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida”gi qarori.
- 5.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-son “2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori.
- 6.“O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarini tasdiqlash haqida”gi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha Ta'lim Vazirining buyrug'i. Ro'yxat raqami № 3032. 03.07.2018-y.
7. Grosheva I., Yestafyeva L., Maxmudova D., Nabixanova Sh., Pak S., Nazarova V. G., Abdunazarova N., Isxakova M. “Ilk qadam” Maktabgacha ta'lim muassasalari uchun Davlat o'quv dasturi, to'ldirilgan ikkinchi nashr. Toshkent-2022.
8. Grosheva I., Shivaldova N., Rizayeva X., Kuryayeva I., Nekrasova Y., Xaziyeva L. Ekologik ta'lim va tarbiya bo'yicha Maktabgacha ta'lim muassasalari uchun “Yer sayyorasi – umumiy uyimiz” parsial dasturi. Toshkent-2022